



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 28 - mart

VI-59-65-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

Xalq deputatlari tuman kengashidagi O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi deputatlik guruhi tashabbusi bilan tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i D.Djabbarovning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19-fevraldagagi "Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va yer ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-585-sonli Qarorining tumandagi ijrosi va belgilanadigan vazifalar to'g'risidagi hisoboti to'g'risida

Xalq deputatlari tuman kengashidagi O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi deputatlik guruhi tashabbusi bilan tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i D.Djabbarovning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19-fevraldagagi "Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va yer ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-585-sonli Qarorining tumandagi ijrosi va belgilanadigan vazifalar to'g'risidagi hisoboti eshitilib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashining ellik to'qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari tuman kengashidagi O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi deputatlik guruhi tashabbusi bilan tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i D.Djabbarovning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19-fevraldagagi "Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va yer ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-585-sonli Qarorining tumandagi ijrosi va belgilanadigan vazifalar to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Elmurotov) tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (D.Djabbarov), korxona, tashkilot muassasa va mutasaddilar bilan birgalikda:

tumanda mavjud kanallar, ariq, soy va zovurlarni suv o‘tkazish qobiliyatini yaxshilash, kuchli yomg‘irlar natijasida sel suvlari toshib ketish xavfini oldini olish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish;

Bulung‘ur shahri markaziy ko‘chalarida yomg‘ir suvlarini to‘planishini oldini olish, markaziy ko‘chalardan yomg‘ir suvlarini erkin chiqib ketishini ta‘minlash bo‘yicha takliflar tayyorlab tuman hokimligiga kiritish;

kanallar yaqinida, tog‘li hududlarda va sel kelishi xavfi yuqori bo‘lgan joylarda yashab kelayotgan yoki yangi uy-joy qurish istagida bo‘lgan fuqarolarga ogohlantirish xati berib, ularni boshqa hududlarga ko‘chib o‘tishi uchun zarur sharoit yaratish choralarini ko‘rish;

aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi va yong‘in xavfsizligi sohasidagi qonunchilikka amal qilinishi yuzasidan tekshiruv o‘tkazish va amaliy yordam ko‘rsatish ishlarini jonlantirish;

tog‘ va tog‘oldi hududlarda yashovchi fuqarolarni yog‘ingarchilik oylarida sel kelishi, tog‘ ko‘chkilari xavfi bo‘yicha oldindan muntazam ogohlantirish choralari ko‘rilsin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Jabborov), “Bulung‘ur hayoti” gazetasi (G‘.O‘rolov)lar tuman Favqulotda vaziyatlar bo‘limi (D.Djabborov) bilan birgalikda sohaga oid tasirchan targ‘ibot materiallarini ijtimoiy tarmoqlarda va ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borishi tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari doimiy komissiyasi (X.Bozorov), Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Shodmonov) va tuman hokimining o‘rinbosari (A.Elmurotov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



S.Astonov